

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 11 | pp. 108-115 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TIJORAT BANKLARI KAPITALI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI: RAQAMLASHTIRISH VA RISK-MENEJMENT INTEGRATSIYASI



Sa'dullayeva Moxinur Aziz qizi
TDIU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolaning maqsadi - raqamli bank xizmatlari va riskka mos boshqaruv mexanizmlarining kapital samaradorligiga ta'sirini aniqlash va mualliflik baholash indeksi asosida empirik tahlil o'tkazishdan iborat. Xususan, raqamlashtirish va risk-menejment integratsiyasining bank kapitali aylanishi va riskka mos daromadlilikka ta'siri ilmiy jihatdan asoslangan. Mamlakatimiz tijorat banklari misolida raqamlashtirish darajasi, risk ko'rsatkichlari va kapital rentabelligi o'rtasida statistik ahamiyatli bog'liqlik mavjudligi empirik tahlil orqali isbotlandi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, bank kapitali, kapital samardorligi, risk-mnejmementi, kapital rentabelligi, raqamlashtirish, risk-menejment, ROE, ROA, diversifikatsiya, zaxira.

Abstract: The purpose of this article is to identify the impact of digital banking services and risk-adjusted management mechanisms on capital efficiency and to conduct an empirical analysis based on an author-developed evaluation index. In particular, the scientific rationale for the influence of the integration of digitalization and risk management on bank capital turnover and risk-adjusted profitability is presented. Using the example of commercial banks in our country, the empirical analysis proves the existence of a statistically significant relationship between the level of digitalization, risk indicators, and capital profitability.

Keywords: commercial banks, bank capital, capital efficiency, risk management, capital profitability, digitalization, risk-adjusted management, ROE, ROA, diversification, reserves.

Аннотация: Целью данной статьи является определение влияния цифровых банковских услуг и механизмов управления с учетом рисков на эффективность капитала, а также проведение эмпирического анализа на основе авторского оценочного индекса.

В частности, научно обосновано влияние интеграции цифровизации и риск-менеджмента на оборачиваемость банковского капитала и доходность с учетом риска. На примере коммерческих банков республики в ходе эмпирического анализа была доказана статистически значимая зависимость между уровнем цифровизации, показателями риска и рентабельностью капитала.

Ключевые слова: коммерческие банки, банковский капитал, эффективность капитала, риск-менеджмент, рентабельность капитала, цифровизация, ROE, ROA, диверсификация, резервы.

Kirish

Bugungi kunda bank tizimi nafaqat moliyaviy vositachi, balki yuqori texnologik sohaga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020 - 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni ijrosi doirasida banklarni xususiylashtirish va ularning raqobatbardoshligini oshirish ustuvor vazifa etib belgilangan¹.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi²da mamlakat bank tizimini rivojlantirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar belgilangan. Chunonchi, Strategiyaga muvofiq, bank tizimini transformasiya qilishni yakunlash, xususiy banklarning ulushini 2025-yilda jami bank aktivlarining 60 foiziga etkazish, bank tizimida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida Xalqaro valyuta jamg'armasi ko'magida iqtisodiyotda vujudga kelishi mumkin bo'gan xatarlarni aniqlash, ularning bank tizimi barqarorligiga ta'sirini baholashga qaratilgan stress-test modellarini ishlab chiqish, makroprudensial buferlar yaratish choralari ko'rib borish ko'zda tutilgan.

Zamonaviy global iqtisodiy beqarorlik va raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining barqarorligi ularning kapital bilan ta'minlanganlik darajasi va undan foydalanish samaradorligiga bevosita bog'liqdir. Bank kapitali nafaqat moliyaviy "xavfsizlik yostiqlashi" (buffer), balki bankning rivojlanish sur'atlarini belgilovchi asosiy resurs hisoblanadi. Bazel III va IV standartlarining joriy etilishi banklar oldiga kapitalning sifati va rentabelligini oshirish bo'yicha yangi talablarni qo'ymoqda. Shu sababli, kapital samaradorligini oshirish yo'llarini ilmiy tadqiq etish bank boshqaruvi uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda bank va moliya tizimi barqarorligini ta'minlashda milliy manfaatlariga to'liq mos keladigan alohida yondashuvlarni joriy qilish, bank sektorini transformatsiya qilish va unda davlat ulushini kamaytirish, bank tizimiga xorijiy kapitalni jalb qilish hamda banklar tomonidan xizmatlar ko'rsatishda zamonaviy usullarni joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Banklarning faoliyatida mavjud risklarni samarali boshqarish orqali ular ta'sirini kamaytirish choralari ko'rish avvalom bor, bizning fikrimizcha, banklar uchun teng raqobat sharoitlarini yaratish va banklararo raqobatni rivojlantirishdan boshlanishi lozim. Buning uchun esa, tijorat banklari kapitalidagi davlat ulushini va banklar faoliyatida davlat ishtirokini kamaytirish zarur. Bank tizimi aktivlarining umumiy hajmida davlat ulushi bo'lmagan banklar aktivlari ulushini joriy 15 foizdan 2025 yilga kelib 60 foizgacha oshirish, banklar majburiyatlarining umumiy hajmida banklarning xususiy sektor oldidagi majburiyatlari ulushini joriy 28 foizdan 2025 yil yakuniga 70 foizgacha oshirish borasida belgilangan vazifalarning bajarilishi banklarda risklar salmog'i va ta'sirini ancha kamaytirish imkonini beradi.

Ammo respublikamiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish uchun banklar bo'sh moliyaviy resurslarni kapitalga transformatsiya qilishni bozor mexanizmi orqali amalga

¹ 2020 yil 12 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-sonli "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrda PF-158-sonli Farmoni. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023 y., 06/23/214/0984-son.

oshirilishi lozim. Shunda tijorat banklari samarali investitsiya faoliyatini amalga oshiradi, muammoli kreditlar ulushi kamayadi va ularning daromadi oshadi. Buning uchun bank sektorida davlat ulushini keskin kamaytirish lozim.

Global moliyaviy tizimda raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi tijorat banklari faoliyatida kapital samaradorligini oshirish masalasini yangi ilmiy nuqtai nazardan ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. An'anaviy yondashuvlarda bank kapitali samaradorligi asosan ROA va ROE ko'rsatkichlari orqali baholangan bo'lsa, zamonaviy sharoitda ushbu ko'rsatkichlar risk omillarini to'liq aks ettirmaydi. Shu bois, bank kapitali samaradorligini **raqamlashtirish va risk-menejment integratsiyasi** asosida kompleks baholash muhimdir.

Kapital samaradorligi — bankning o'z aksiyadorlari mablag'laridan qanchalik foyda ko'rayotganini ko'rsatuvchi asosiy mezonidir. Agar kapital samaradorligi past bo'lsa, bank yangi investorlarni jalb qila olmaydi va inqirozlarga nisbatan zaif bo'lib qoladi.

Tijorat banklari kapitali samaradorligini oshirish - bu shunchaki foydani ko'paytirish emas, balki bankning strategik barqarorligini ta'minlashdir.

Tijorat banklari kapitali samaradorligi bank tomonidan jalb qilingan va joylashtirilgan kapitalning daromad keltirish qobiliyati, risklarga bardoshliligi hamda aktivlar aylanish tezligi bilan belgilanadi. Ushbu samaradorlikni baholashda asosan **ROA**, **ROE**, aktivlar aylanish koeffitsienti kabi ko'rsatkichlar qo'llaniladi.

Hozirgi moliyaviy bozor sharoitida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi tijorat banklari faoliyatida kapital samaradorligini oshirish masalasini dolzarb qilib qo'ymoqda. An'anaviy bank amaliyotida kapital samaradorligi asosan ROE va ROA ko'rsatkichlari orqali baholangan bo'lsa-da, mazkur yondashuv risk omillarini to'liq hisobga olmaydi.

Global raqobat sharoitida bank kapitali samaradorligini oshirish an'anaviy usullar bilan cheklanib qolmay, **raqamlashtirish strategiyasi** orqali amalga oshirilishi zarur. Raqamlashtirish bank operatsiyalarini avtomatlashtirish, ma'lumotlar oqimini tezlashtirish va inson omili ta'sirini kamaytirish orqali kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tijorat banklari kapitali samaradorligini oshirishda raqamlashtirish shunchaki texnik jarayon emas, balki kapitalni boshqarishning yangi paradigmasidir. U bankka kamroq kapital bilan ko'proq operatsiyalarni bajarish (Capital Optimization) va risklarni kapital bilan emas, balki ma'lumotlar bilan sug'urtalash (Data-driven Risk Management) imkonini beradi.

Raqamli bank xizmatlari (internet-banking, mobil banking, onlayn kreditlash, raqamli to'lov tizimlari) kapital aylanish jarayonini tezlashtiruvchi muhim omil hisoblanadi.

Tijorat banklarining barqarorligini ta'minlash uchun aktivlar aylanish tezligi oshirish, bank xizmatlarini oshirish, foiz va komissiya daromadlari ko'paytirish orqali bank kapitali samaradorligi yaxshilanadi.

Bank kapitali samaradorligiga salbiy ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri — yuqori operatsion xarajatlardir. Raqamlashtirish orqali, filial tarmoqlarini optimallashtirish,

qog'oz hujjat aylanmasini qisqartirish, avtomatlashtirilgan hisob-kitob va nazorat tizimlarini joriy etish yo'llar bilan ushbu muammoni bartaraf etadi.

Operatsion xarajatlarning kamayishi bank sof foydasining oshishiga olib keladi, bu esa to'g'ridan-to'g'ri ROE va ROA ko'rsatkichlarining o'sishini ta'minlaydi.

Bank kapitali samaradorligi nafaqat daromad hajmi, balki risk darajasi bilan ham bevosita bog'liq. Yuqori riskli operatsiyalar qisqa muddatda yuqori daromad keltirishi mumkin, ammo uzoq muddatda kapitalning yo'qotilishiga olib keladi.

Shu sababli zamonaviy bank amaliyotida kapital samaradorligini oshirishda, **samarali risk-menejmentisiz erishib bo'lmaydi**. Zamonaviy banklarda risk-menejment tizimi raqamli texnologiyalar bilan chuqur integratsiyalashgan holda faoliyat yuritishi lozim. Bu, avtomatlashtirilgan kredit skoringi, katta ma'lumotlar (Big Data) asosida risklarni baholash, real vaqtda monitoring va stress-testlar o'tkazilishi orqali ta'minlanadi. Ushbu integratsiya, kredit risklarini kamaytiradi, muammoli aktivlar ulushini pasaytiradi, kapital yetarliligiga bo'lgan bosimni yumshatadi. Yani bu yerda raqamli texnologiyalardan foydalanish, sun'iy intellekt va skoring tizimlari bankka qaysi mijozga kredit berish kerakligini aniqroq aytib beradi. Bu esa muammoli kreditlar (NPL) ulushini kamaytirib, kapital qaytimini oshiradi.

Risk-menejmentning asosiy vazifalaridan biri bank kapitalini yo'qotishlardan himoya qilishdir. Raqamlashtirilgan risk-menejment tizimiga antifrod mexanizmlari, erta ogohlantirish tizimlari, portfel diversifikatsiyasini tahlil qilish orqali kapitalning barqaror aylanishini ta'minlaydi, natijada, tijorat banklarida kapital qaytimi barqarorlashadi, bank moliyaviy barqarorligi mustahkamlanadi, tashqi ta'sirlarga nisbatan chidamlilik oshadi.

Bazel III standartlariga ko'ra, bank o'z kapitalini aktivlarining risk darajasiga qarab shakllantirishi kerak. Kapital samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- Aktivlar tarkibini qayta ko'rib chiqish: Yuqori riskga ega bo'lgan, lekin kam daromad keltiruvchi aktivlardan voz kechish.
- Kredit portfeli diversifikatsiyasi: Kapitalga bo'lgan talabni kamaytirish uchun kreditlarni turli sohalarga va kichik biznes vakillariga taqsimlash.
- Zaxiralarni optimallashtirish: MHHS-9 (IFRS-9) standartlari asosida kutilayotgan kredit zararlarini to'g'ri baholash orqali ortiqcha zaxira ajratilishining oldini olish.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda raqamli bank xizmatlari va riskka mos boshqaruv mexanizmlarining kapital samaradorligiga ta'sirini aniqlashni ustuvor yo'nalishlarni aniqlash maqsadida qator metodologik yondashuvlar qo'lanildi. Nazariy tahlil usuli orqali bank kapital samaradorligi va raqamli iqtisodiyot rivojlanishiga oid ilmiy adabiyotlar, davlat strategiyalari hamda normativ hujjatlar tahlil qilindi, bu esa bank tizimining asosiy xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, taqqoslash usulidan foydalanib, raqamli iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan banklarning barqarorlikka ta'sir qiluvchi omillari rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar misolida o'rganildi. Bunda bank kapital samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi zamonaviy yondashuvlar aniqlandi.


Empirik tahlil natijalari raqamlashtirish va risk-menejment integratsiyasi tijorat banklari kapitali samaradorligini oshirishda hal qiluvchi strategik omil ekanini tasdiqlaydi. Ushbu integratsiya kapital aylanishini tezlashtirish, risklarni

minimallashtirish va bank moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu metodologik yondashuvlar tadqiqot maqsadiga erishishda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga yordam berdi.

Tahlil va natijalar

Bank kapitali hajmi va uning barqarorligi bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi eng asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Buning asosiy sababi shundaki, bank kapitali moliya-bank tizimida himoya funksiyasini bajaradi, ya'ni har qanday salbiy holat yoki zarar yuzaga kelganda, kapital birinchi bo'lib foydalanishga imkon beradi. Bank nazorati bo'yicha xalqaro talablarda ham bank kapitaliga nisbatan me'yorlar o'natilishi bejiz emas.

2023-yilda banklar mamlakatimiz bank tizimining jami kapitali hajmi 22 foizga oshib, yil yakuni bo'yicha 97 trln so'mga, ustav kapitali miqdori 15 foizga o'sib, qariyb 69 trln so'mga etdi(1-rasm).



1-rasm. Bank tizimi kapitallashuv darajasi, trln so'mda.

**Muallif tomonidan ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan.*

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'rib chiqilayotgan davr mobaynida bank tizimi jami kapitali barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, 2023 yil boshida 79,6 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yil 1 yanvar holatiga kelib 97,1 trln so'mga yetgan. Bu esa jami kapital hajmining tahlil qilingan davrda sezilarli darajada oshganini anglatadi.


Kapital tarkibi tahlili shuni ko'rsatadiki, ustav kapitali asosiy ulushni tashkil etgan holda 2023 yil yanvar oyida 59,9 trln so'm bo'lgan bo'lsa, 2024 yil yanvar oyida 68,6 trln so'mgacha oshgan. Ustav kapitali hajmining muntazam o'sib borishi banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan davlat va banklar tomonidan amalga oshirilayotgan kapitalni qo'shimcha jalb etish chora-tadbirlari samaradorligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, boshqa kapital turlarining ham bosqichma-bosqich o'sishi kuzatilib, jami kapital o'sishini qo'llab-quvvatlagan. Bu holat bank tizimida kapital

manbalarini diversifikatsiya qilish va risklarga bardoshlilikni oshirishga qaratilgan siyosat izchil amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, bank tizimi kapitallashuv darajasining o'sishi tijorat banklarining risklarga chidamliligini oshirish, kreditlash salohiyatini kengaytirish hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun mustahkam asos yaratayotganini tasdiqlaydi. Mazkur tendensiya bank tizimida kapital samaradorligini yanada oshirish, xususan, kapitaldan foydalanish sifatini yaxshilash va riskka mos boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini ham dolzarb qilib qo'yadi.

Kapital yetarliligining ahamiyati quyidagilar bilan izohlanadi: mijozlar manfaatini himoya qilish: omonatchilar va kreditorlarning mablag'larini himoya qiladi; inqirozlarning oldini olish: kapital zaxirasi bankni moliyaviy inqirozlardan himoyalaydi, ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarning ta'sirini kamaytirishga xizmat qiladi hamda yuqotishlarni oldini oladi; ishonchni oshirish: investorlar va mijozlar orasida bank tizimiga bo'lgan ishonchni ta'minlaydi, resurslar barqarorligini oshiradi (2-rasm).



2-rasm. Kapital monandligi dinamikasi.

*Muallif tomonidan ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan.

Ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2023–2024 yillar davomida bank tizimida regulyativ kapital hamda riskka tortilgan aktivlar hajmi izchil o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Xususan, regulyativ kapital 2023 yil boshidagi 83 trln so'mdan 2024 yil oxiriga kelib 106 trln so'mgacha o'sgan bo'lsa, riskka tortilgan aktivlar hajmi 468 trln so'mdan 604 trln so'mgacha oshgan.

Shu bilan birga, kapital va aktivlar o'sish sur'atlari o'rtasida nomutanosiblik kuzatilib, riskka tortilgan aktivlar o'sish sur'ati regulyativ kapital o'sishidan tezroq kechgan. Natijada, 2023 yil davomida **kapital monandligi koeffitsienti** bosqichma-bosqich pasayib, 17,8 foizdan 15,9 foizgacha tushgan. Bu holat banklar tomonidan kreditlash faolligining kengayishi va riskli aktivlar ulushining ortishi bilan izohlanadi.

2024 yil boshiga kelib esa kapital monandligi ko'rsatkichida tiklanish tendensiyasi kuzatilib, yil yakunida 17,5 foizga yetgan. Bu, o'z navbatida, banklar kapitali

mustahkamlanishi, qo'shimcha kapital jalb etilishi hamda risklarni boshqarish mexanizmlari samaradorligining oshganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tahlil natijalari bank tizimida kapital yetarliligi me'yoriy talablar doirasida saqlanib qolayotganini, biroq aktivlar o'sishining yuqori sur'atlari kapitalni rejalashtirish va riskka mos boshqaruvni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda kapital monandligini strategik darajada boshqarish muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar

Mamlakatimiz bank tizimida islohotlar izchillik bilan davom etayotgan bo'lsa-da, kapital samaradorligiga to'sqinlik qilayotgan bir qator omillar mavjud:

Birinchidan, Davlat ulushining yuqoriligi: Bank tizimi aktivlarining katta qismi hamon davlat banklari hissasiga to'g'ri keladi. Ulardagi "ijtimoiy kreditlash" va imtiyozli stavkalar kapitalning bozor tamoyillari asosida ishlashiga yo'l qo'ymaydi.

Ikkinchidan, inson kapitalining yetishmasligi: Kapitalni risk-menejment asosida boshqaradigan, ma'lumotlar tahlili (Data Science) bilan ishlaydigan mutaxassislar yetishmasligi.

Uchinchidan, Fond bozorining sustligi: Banklar o'z kapitallarini diversifikatsiya qilishi yoki aktivlarni sekyuritizatsiya qilishi uchun ikkilamchi fond bozori yetarlicha rivojlanmagan.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli bank xizmatlarini joriy etish va riskka mos boshqaruv mexanizmlarini integratsiyalash tijorat banklari kapitali samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Xususan, raqamlashtirish jarayonlari operatsion xarajatlarni qisqartirish, xizmatlar tezkorligi va shaffofligini oshirish orqali kapital aylanish tezligini yaxshilaydi. Shu bilan birga, risk-menejmentning zamonaviy usullari kapital yetarliligi va barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Mualliflik baholash indeksi asosida olib borilgan empirik tahlil natijalari raqamli texnologiyalar bilan qo'llab-quvvatlangan riskka mos boshqaruv tizimi bank kapitali samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Ayniqsa, risklarni barvaqt aniqlash, baholash va monitoring qilish imkoniyatlarining kengayishi kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qilayotgani aniqlandi. Bu esa banklarning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

Shu nuqtai nazardan, tijorat banklari faoliyatida raqamlashtirish va risk-menejmentni alohida yo'nalishlar sifatida emas, balki yagona integratsiyalashgan tizim sifatida rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar bank kapitali samaradorligini oshirishga qaratilgan strategik qarorlar qabul qilishda, shuningdek, bank tizimini tartibga solish va takomillashtirish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, kapital samaradorligini oshirish - bu raqamli innovatsiyalar va qat'iy risk-menejment o'rtasidagi oltin muvozanatni topish demakdir. Faqatgina texnologiya va xavfsizlikni uyg'unlashtirgan banklar kelajakdagi raqobatda g'olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 24 yanvar 2020 yil. – www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi "2020-2025

yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2017. – № 6 (766). – 32-b.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992 sonli "2020 - 2025 yillarga mo'ljallangan o'zbekiston respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" Farmoni

5. Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasini 2022 yilda amalga oshirish bo'yicha Yo'l xaritasi – www.lex.uz

6. Lavrushin O.I., Azizov U.U., Karaliev T.M Bankovskoe delo. Pod redaksii O.I. Lavrushina M.KRUNOS. 2019 g. st. 224

7. Basel Committee on Banking Supervision. "Basel III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems". Bank for International Settlements (BIS).

8. Mis'hkin, F. S. "The Yeconomics of Money, Banking and Financial Markets". Pearson Yeducation, 12th Yedition, 2018.

9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik statistik va tahliliy ma'lumotlari (cbu.uz).

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

